

THE USE OF SYNONYMS IN THE POETRY OF ERKIN VAKHIDOV

Yakubova Feruza Anvarovna

UzJPCU Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature

ANNOTATION

The article explores the use of synonyms in the poetry of the poet Erkin Vakhidov, the study of synonyms in the poet's work and their aspects of increasing artistic effectiveness, as well as methodological peculiarities in the language of poetry, more than one ensures image clarity through the sequential use of unfamiliar words, which not only uses ready-made semantic words that are present in the language, but also non-semantic according to the needs of the artistic image. Use them in such a way that these words are perceived in the text as meaningful words.

Keywords: synonyms, artistic image, stylistic features, artistic impact, national spirit.

INTRODUCTION

XX asr o'zbek adabiyoti juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib kelgan she'riyat o'tgan asrning 60-yillariga kelib, yana bir bor yuksalish jarayonini o'z boshidan kechirdi. Bu davrga kelib adabiyotda, xususan, she'riyatda yangicha talqinlar, tuyg'ular ifodasi yanada, teranroq ifodalana boshladi. Bu jarayonda iste'dodli shoir Erkin Vohidovning o'ziga xos o'rni mavjud. Shoirning "Yoshlik devoni" go'yo "mudragan aruzni uyg'otib yubordi. Erkin Vohidov she'rdagi yashirin hikmatni o'zbek g'azalxonlari qalbiga joylay oldi [Rahmonova, 2020: 12]. Erkin Vohidov she'riyatida ma'nodosh so'zlarning alohida o'rni bor. She'rda ma'nodosh so'zlarning qo'llanilishi ma'noni kuchaytirish bilan birga mazmunni o'quvchilarga yetkazib berishga qulay imkoniyat yaratadi. Sinonimlar gapdagi takrorga yo'l qo'ymaydi. O'rinsiz takror nutqqa zarar yetkazadi. Sinonimlar badiiy uslub vositasi bo'lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir [Xolmonova, 2016: 117].

Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Sinonim belgi, predmet, shaxs, voqeaning bir necha nomlar bilan aytilishidir: odam, inson, kishi, bashar; yel, bo'ron, sabo, nasim; katta, buyuk, ulug'; gapirdi, aytdi, so'zladi, dedi, uqtirdi, bayon etdi va b. Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: Gulshanda gullarni tebratar sabo, Adashgan yo'lchiday daydib yurar yel. Men buyuk yurt o'g'lidirman, Men bashar nfarzandiman [Xolmonova, 2016: 116].

Shoir bir so'zni tanlar ekan, uni takrorlamaslik uchun boshqa ma'nosidan mohirona foydalanadi. Uning "Ishq savdosi" saylanmasidan o'rin olgan "Xayrli kech" she'ri fikrimiz isbotidir. Shoir tilak, niyat, istak so'zlarini tanlash orqali tasvirda milliy ruhni birinchi planga olib chiqishga erishgan:

Tilak qadrin bilar odamlar,

Yaxshi niyat qilar odamlar.

Do'stga tungi orom oldidan,

Xayrli kech tilar odamlar [Vohidov, 2000: 32]

She'ning keyingi misralarida Erkin Vohidov ma'nodosh so'zlarni ketma-ket qo'llab ma'noning ta'sirchanligini oshirgan. Uning ijodida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zlarni aynan bir o'rinda aniq maqsadga bo'ysundirgan holda qo'llash hollari ko'p uchraydi. Shoirning badiiy til mahorati uning leksik ma'nodoshlikdan tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, nazarda tutilayotgan asosiy g'oyaga urg'u berish qo'llanganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, misrada frazeologik ma'nodoshlikning betakror namunasini ham ko'rishimiz mumkin. Bir tushunchani ayrim hollarda, ayniqsa, badiiy uslubda ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalash mumkin. Bular frazeologik sinonimlar deyiladi [Xolmonova, 2016: 118]:

Xayrli kech – hikmatli istak,

Bu istakni buyurmish yurak.

Xayrli kech – farahli tuning,

Osoyishta, tinch bo'lsin, demak [Vohidov, 2000: 32]...

Erkin Vohidov "Ona tuproq" she'rida qutlug', muqaddas, mo'tabar, tabarruk kabi ma'nodosh so'zlarni qo'llab, Vatanning muqaddas maskan ekanligini ta'kidlaydi:

Nega inson yerni qutlug' der,

Tuproqni ham sanar muqaddas.

Yo'q, mo'tabar emas asli yer,

Tuproq o'zi tabarruk emas.

Dastlab o'sha yer uzra odam,

To'kkanida halol manglay ter,

Gavhar undi ona tuproqdan,

Qutlug' bo'ldi muazzam bu yer [Vohidov, 2000: 33]....

Erkin Vohidov "Yo'q, xalovat istamayman" she'rida bir nechta ma'nodosh so'zlarni qo'llab, matnda tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini anglatgan:

Yo'q, xalovat istamayman,

Orom bilmas yosh jonim.

To'lqin urgan ummoncha bor,

Yurakdagi tug'yonim [Vohidov, 2000: 36].

Shoir yurakdagi tug'yonini to'lqin urgan ummonga qiyoslab, yosh joni orom, xalovat bilmasligini ta'kidlaydi.

Bo'ronlarga, dovullarga

Peshvoz yurgim keladi.

Daryolarning girdobiga

Ko'krak urgim keladi [Vohidov, 2000: 36].

U xalovat topish uchun bo'ronlarga, dovullarga peshvoz yurgisi, daryolarning girdobiga ko'krak urgisi keladi. Shu orqali xalovat topishni istaydi. Erkin Vohidov she'r misralarida ma'nodosh so'zlarni (orom, xalovat yoki bo'ron, dovul) o'z o'rnida qo'llash orqali ko'zlagan maqsadiga erishgan.

Shoir "Qizaloq" she'rida qo'g'irchoq o'ynayotgan qizaloq hayotning zahmatini, mushfiq onalikning mashaqqatini bilmay turib bo'yniga olayotganligini tasvirlaydi. Bunda shoir ma'nodosh so'zlarni o'rnida qo'llaydi. Shoir ona buyuk zot ekanligini, "Mushfiq onalikning bor mashaqqati"ni satrlarga muhrlaydi. Erkin Vohidov o'quvchiga shu oliy tuyg'uni anglatmoqchi bo'ladi.

Halitdan onalik mehr-shafqatin,
 Dilingga soldingmi, erka qizaloq?
 Tatib ko'rmay hali hayot zahmatin,
 Mushfiq onalikning bor mashaqqatin
 Bo'yningga oldingmi, erka qizaloq? [Vohidov, 2000: 48].

Alibek Rustamov "So'z xususida so'z" kitobida Erkin Vohidovning yetuk asarlarida uchraydigan olam, fazo, borliq, dunyo so'zlari ma'no mazmunini yoritib berishga intiladi: G'ayb olamidagi moddiy va sezish mumkin bo'lgan tabiiy mavjudotning hammasi koinotga kiradi. "Fazo" ham muhit sifatida koinot tarkibidadir. "koinot"ning asl lug'aviy ma'nosi bo'luvchi, vujudga keltiruvchi narsalardir... "Dunyo" deganda inson hayoti bilan bog'liq tabiiy va sun'iy mavjudot tushuniladi. Shuning uchun "dunyo" so'zi boylik, mol-u mulk ma'nosida ham qo'llanadi. "Jahon" so'zida "koinot" bilan "dunyo"ga xos xususiylilik yo'q va u "olam" so'zining eng yaqin ma'nodoshi sifatida ham qo'llanadi. "Olam" so'zining o'ziga xos tomoni shundaki, u faqat moddiy mavjudot emas, ma'naviyatga nisbatan ham qo'llanadi. Undan tashqari "olam" so'zi borliqning azaliy va abadiy jihatini ham o'z ichiga oladi [Rustamov, 2010: 70]. Erkin Vohidov "Yurak va aql" she'rida fazo, olam, borliq kabi ma'nodosh so'zlarini qo'llar ekan, ildizga kirib borishga, ilk asosni anglashga intiladi. "Olam va odam go'zallik – mehnat tufayli o'sib-o'zgarib boradi [Rasulov, 2006: 58].

Aql cheksiz fazoga hokim,
 Aql hokim olam yuziga.
 Borliq unga bo'ysunar,
 Lekin
 Yurak kirmas uning so'ziga [Vohidov, 2000: 58].

Shuningdek, shoir "Go'zallik" she'rida ham borliq, olam, dunyo singari ma'nodosh so'zlarni qo'llab, go'zallikni olam va odam bog'liqligida oladi:
 Mulki borliq ichra bir mahal,
 Ko'rksizgina olam yaralgan.
 Bermoq uchun dunyoga sayqal
 Olam aro odam yaralgan [Vohidov, 2000: 101].

Yoki "She'r va shaxmat" she'rida
 Go'zallik,
 Nafosat,
 Kurash va san'at
 She'r ila shaxmatga azaliy udum [Vohidov, 2000: 107]
 Go'zallik va nafosat ma'nodosh so'zlarini kurash va san'atga tenglashtiradi. She'r davomida ma'nodosh so'zlar ma'noni kuchaytirish va ta'kidlash uchun ketma-ketlikda qo'llanadi:
 Shaxmat abadiydir,
 She'r abadiy.
 Yurish tugamas-u so'z bo'lmas tamom.
 Shaxmat taxtasida ,
 She'r maydonida,
 G'oyalar kurashi etadi davom [Vohidov, 2000: 107].

Misrada ketma-ket qoʻllangan maʼnodosh soʻzlar orqali shoirning ruhiy holatini, tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini anglash mumkin. Shoir “Uchi tuguk dastroʻmol” sheʼrida shoshma, oshiqma maʼnodosh soʻzlarini qoʻllash orqali bu dunyoda hamma narsaning vaqti-soati borligini, inson umri yeldek oʻtishini taʼkidlaydi. Bosh koʻtarib atrofiga qarashini uqtiradi:

Shoshma doʻstim barcha ishing bitadi,

Bitmas ish yoʻq, oshiqmasin yuraging.

Inson umri axir yeldek oʻtadi,

Bosh koʻtarib atrofingga qaragin [Vohidov, 2000: 111].

Keyingi misralarda qator kelgan maʼnodosh soʻzlardan (betashvish, begʻam) oldin kim soʻzini qoʻllash orqali tasvirlanayotgan tushunchalarni alohida-alohida taʼkidlanish barobarida maʼno kuchaytirishga boʻysundirilgan:

Bu dunyoda kim betashvish, kim begʻam,

Har insonning bir boshida ming xayol.

Oʻylab koʻrsam, miyamizning oʻzi ham

Oʻn toʻrt milliard uchi tuguk dastroʻmol [Vohidov, 2000: 111].

Shoirning badiiy til mahorati uning leksik maʼnodoshlikdan tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, nazarda tutilayotgan asosiy gʻoyaga urgʻu berishlikni qoʻllaganligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Satrlar sof samimiyat bilan sugʻorilgan. Soʻz sanʼatkori – Erkin Vohidovning mahorati yana shundaki, u faqat tilda mavjud boʻlgan, tayyor maʼnodosh soʻzlardagina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlmagan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydiki, bu soʻzlar ham matnda xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati”. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1974.
2. Rahmonova Sh. XX asr ikkinchi yarmi aruzning poetik shakl va vazn takomilidagi oʻrni.
3. Filol. fan. boʻyicha fal. dokt. (PhD) diss. avtoref. – T., 2020. – B. 52.
4. Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma. 1-jild. – T.: 2000. – B. 414.
5. Xolmonova Z. Mutaxassislikka kirish. – T.: 2016. – B. 222.
6. Ўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Т.: 2018. – Б. 504.
7. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: 2010. – Б. 136.
8. Сўз сеҳри / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи – ф.ф.д. проф. Ҳ.Болтабоев.
9. – Т.: 2006. – Б. 136.
10. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Т.: 2007. – Б. 168.